



VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGI PROFILAKTİKASINING AYRIM MASALALARI

Kalandarov Djalaladdin Davronovich

Xorazm viloyati prokurorining katta yordamchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8232635>

ARTICLE INFO

Received: 03th August 2023

Accepted: 09th August 2023

Online: 10th August 2023

KEY WORDS

Ayb, voyaga yetmagan, jinoyat,
javobgarlik, jazo,
huquqbuzarlik, ijtimoiy
xavflilik, xulq-atvor,
profilaktika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining ayrim masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir masalalar tahlil etish jarayonida "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ma'zmun va mohiyati ham ochib berilgan.

Bizga ma'lumki, kriminologiyada jinoyatlarning oldini olish deganda, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillarni bartaraf etish yoki ularni neytrallashtirishga qaratilgan davlat va jamiyat chora-tadbirlari majmuini tushunishni nazarda tutadi¹.

Ko'pgina kriminologlar jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning umumiy va maxsus profilaktikasini farqlaydilar, shuningdek kriminologik profilaktikaning turli vazifalari va darajalarini qayd etadilar².

Mustaqillik yillarida respublikada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ayrim kamchiliklardan ko'z yumib bo'lmaydi. Xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi;

davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayotgani;

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-

¹ Криминология. – М., 1996. – 203-204-б.

² Игошев К.Е. Социальный контроль и профилактика преступлений. – Горький, 1976. – 39-40-б.



sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi;

vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi.

Bu kabi holatlar huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi³.

Ba'zi olimlarning o'rganishlariga ko'ra⁴, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining sabablarini tugatishning tashkiliy mexanizmini ishlab chiqish: juda ko'p holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi subyektlar huquqbuzarliklarning shart-sharoitlarini bartaraf etishga e'tibor qaratadi.

voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda psixologik, sotsiologik va pedagogik bilimlardan kengroq foydalanish: aynan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari muammolarini o'rganadigan va hal qiladigan alohida kadrlar tayyorlash.

voyaga yetmaganlar o'rtasida ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmini takomillashtirish: ma'muriy huquqbuzarliklarning kriminologik tahlili, voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsini, shuningdek, huquqbuzarliklarning ko'zga ko'rinmas aslida muhim bo'lgan sabablarini o'rganishdagi muhim o'rin tutadi.

voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda hududiy omillarni hisobga olish kerak: hududiy kriminogen omillar, aholi tarkibi, demografik vaziyat, migratsiya jarayonlari kabi.

Demak, sohada yetarli kamchiliklar hamda qilinishi kerak bo'lgan qator ishlar borligi aniq. Shu xususda, hozirgi kunda umuman huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash borasidagi ishlar va ularning tahliliga birma-bir to'xtalib o'tishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qaroriga asosan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi" va "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi Nizomlar tasdiqlandi.

2014-yil 14 mayda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qonuniy ta'rifi berildi:

ijtimoiy reabilitasiya qilish va ijtimoiy moslashtirish – huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son.

⁴ Ш. Р. Фофуров. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш масалалари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. 2017. № 3 (4). 63-68 б.



ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor – shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;

huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi – jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs;

huquqbuzarliklar profilaktikasi - huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi;

huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs - o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxs.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi⁵ qonunning 6-moddasida profilaktika turlari keltirilgan bo'lib, bu voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga ham bevosita tegishlidir. Jumladan, huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi, viktimologik profilaktikasi qonunda nazarda tutilgan:

huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi - huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati (huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish va boshqalar.)

huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi - huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyat.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi shular jumlasidandir. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#), ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

⁵ O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2019-y., 03/19/575/3972-son.



Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi deganda, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyat. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari deganda, profilaktika suhbatlari, rasmiy ogohlantirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga yuborish, ma'muriy nazorat hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Lekin, voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ham ma'lum muammolar borki, bu boradagi ishlarning samaradorligiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Masalan, voyaga yetmagan shaxsni profilaktik hisobga olish, ya'ni bunda voyaga yetmagan ichki ishlar organlariga keltiriladi va unga xuddi jinoyatchidek munosabat yo'lga qo'yilishi o'smirning ruhiyatiga jiddiy ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shunki, huquqbuzar shaxsini o'rganishdan bizga ma'lumki, voyaga yetmagan shaxsning huquqbuzarlik sodir etishi uning motiv va maqsadlariga ko'ra voyaga yetganlar huquqbuzarligidan keskin farq qiladi, ba'zan ular o'zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfiligini to'la anglamaydi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganni ijtimoiy moslashuvini ham qiyinlashtiradi. Bunda ularga nisbatan o'ziga xos munosabatda bo'lishni taqazo etadi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi esa, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyatni nazarda tutadi.

Aytish lozimki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olishda, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning viktimlarini o'rganish ham alohida kasb etadi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari deganda, qonun chiqaruvchi huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish, aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish, huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish, huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish, g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish, hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish, profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda



bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirishning alohida turini tashkil etuvchi voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish, alohida qonun asosida tartibga solinadi.

"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi⁶ Qonun 2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunni alohida e'tirof etish lozim.

Mazkur qonun voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir asosiy qoidalar, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar va ularning vakolatlari, yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish, voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish tartibi, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi va boshqa qoidalar tartibga solindi.

Shuningdek, mazkur qonun voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish maqsadlarini ko'zlaydi.

⁶O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son.